

# Abdullayev Habib Muhammedovich



O'zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti (1956 – 1962-yy.)

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1947-y.), geologiya-mineralogiya fanlari doktori

SSSR Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi (1958-y.)

Geologiya sohasidagi olim, fan va ta'lim faollaridan biri, jamoat arbobi

1912-yil 21-avgustda O'sh viloyatining Aravan qishlog'ida tavallud topgan.

1962- yil 20-iyunda vafot etgan va Toshkent shahrida dafn etilgan.

Lenin mukofoti laureati (1959 y.)

Beruniy nomidagi O'zSSR Davlat mukofoti laureati (vafotidan so'ng, 1970-y.)

Buyuk Britaniya va Fransiya ilmiy geologiya jamiyatlarining haqiqiy a'zosi.

O'rta osiyo industriya institutini tamomlagan (O'OII, 1935-y., hozir ToshDTU)

Mehnat faoliyati davomida O'OII assistenti, dotsenti, direktori, O'zbekiston KP MQ sanoat bo'limi mudiri, O'zSSR Ministrlar Kengashi raisi o'rinbosari, O'zSSR Davplani qo'mitasi raisi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti va Prezidenti, shuningdek O'zbekistondagi boshqa mas'uliyatli boshqaruv lavozimlarida ishlagan.

180 dan ortiq ilmiy ish, shu jumladan 8 ta monografiya muallifi.

7 ta fan doktori va 28 ta fan nomzodini tayyorlagan.

2002-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (vafotidan so'ng).